
BILASIZMI.... Garov bilan ta'minlangan talablarni qanoatlantirish tizimi yanada takomillashtiriladi

2024 yil 1 yanvardan

Markaziy bankning garov bilan ta'minlangan talablarni qanoatlantirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi tartiblar joriy etiladi:

□to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari jarayonida kreditorlarning garov bilan ta'minlangan talablarini garovga qo'yilgan mol-mulk qiymatidan qanoatlantirishda ularga mutlaq ustunlik berish;

□garovga qo'yilgan mol-mulkni takroriy auksionda sotish mumkin bo'lgan eng past narxni auksion ob'yekti boshlang'ich narxining 80 foizi miqdorida belgilash;

Bunda, mol-mulk takroriy auksionda realizatsiya qilinmasa, undiruvchiga ushbu mol-mulkni auksion boshlang'ich narxidan 25 foiz past qiymatda o'zida qoldirish taklif qilinadi.

□undiruvga qaratilgan garovga qo'yilgan mol-mulkning ochiq kimoshdi savdosida sotilishini garovga qo'yuvchining iltimosiga asosan kechiktirilishiga yo'l qo'yilmasligi;

□qarzdorning ixtiyoriy ravishda tugatilishi jarayoni boshlanishi munosabati bilan davlat ijrochisi tomonidan ijro ishini tamomlash hamda mol-mulkni tasarruf qilishga doir cheklovlarni olib tashlash amaliyotini bekor qilish.

Toshloq tuman adliya bo'limi Yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i Z.Akramov

2023-12-25 15:17:47